



THE ROLE AND IMPORTANCE OF PHILOSOPHICAL KNOWLEDGE IN THE FORMATION OF POLITICAL AND SOCIAL SKILLS OF A PERSON IN CIVIL SOCIETY

Aliqulov Kuvonchbek Alisher o'gli

TDTrU. Civil Engineering. 1st Year Student, Student of Group BI -5-25

E-mail address: aliqulovquvonchbek071@gmail.com

Phone: +998954170207

Kushakov Fayzulla Abdullaevich.

Scientific Supervisor, Associate Professor of the Department of "Social Sciences" of TDTrU, Acting

Email address: kushakovfayzullo@gmail.com

Phone: +99897 777 25 83

Abstract

This article examines a number of views on the role and importance of legal culture in the political life of society. Eastern and Western interpretations of the concept of democracy are analyzed, the role of democratic principles in society and state relations is studied. The political views on the formation of the current legislation in our country are analyzed.

Keywords: Democracy, society, state, person, political activity, legal culture, individualism.

Introduction

FUQAROLIK JAMIYATIDAGI SHAXSNING SIYOSIY VA IJTIMOIIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANISHIDA FALSAFIY BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Aliqulov Quvonchbek Alisher o'g'li

TDTrU. Qurilish muhandisligi. 1-kurs talabasi BI -5-25 guruh talabasi

Elektron adres: aliqulovquvonchbek071@gmail.com

Telefon:+998954170207



Ilmiy rahbar: Kushakov Fayzulla Abdullaevich.

TDTrU «Ijtimoiy fanlar» kafedrası dotsent v.b.

Elektron adres: kushakovfayzullo@gmail.com

Telefon: +99897 777 25 83

Annotatsii

Ushbu maqolada jamiyat siyosiy hayotida huquqiy madaniyatni o‘rni va ahamiyati xususida bir qator qarash o‘rganib chiqildi. Demokratiya tushunchasini sharq va g‘arb talqinidagi fikrlar taxlil qilinib, jamiyat va davlatchilik munosabatlarida demokratik tamoillarni o‘rni o‘rganildi. Yurtimizda mavjud qonunchilikni shakllanishida siyosiy qarashlar taxlil qilindi.

Аннотация

В данной статье изучен ряд взглядов на роль и значение правовой культуры в политической жизни общества. Проанализированы восточные и западные трактовки понятия демократии, изучена роль демократических принципов в обществе и государственных отношениях. Проанализированы политические взгляды на формирование действующего законодательства в нашей стране.

Kalit so‘zlar: demokratiya, jamiyat, davlat, shaxs, siyosiy faoliyat, huquqiy madaniyat, individualizm.

Ключевые слова: демократия, общество, государство, личность, политическая деятельность, правовая культура, индивидуализм.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiёт strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” deb nomlangan beshinchi ustuvor vazifasidagi 73- maqsadda, aynan, “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” ko‘zda tutilgan. Mazkur vazifa ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilish hamda o‘sib kelaётgan ёshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishni nazarda tutadi[1].



Demokratik taraqqiyot yo‘lini tanlagan har qanday mamlakatda siyosiy va huquqiy madaniyat saviyasi demokratik davlatlarga mos bo‘lishi lozim. Albatta O‘zbekistondagi siyosiy madaniyat saviyasi g‘arb mamlakatlaridan farq qiladi. Yurtimizdagi demokratik jarayonlar xalqimiz milliy madaniyatining o‘ziga xos jihatlari, uning tabiatini o‘zida mujassam etmog‘i kerak. G‘arb namunasi esa ko‘p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiyashtirishga olib keladi.

Osiyo mintaqasi va musulmon Sharqidagi demokratik qadriyatlar va o‘zgarishlarning rivojlanish tajribasi o‘ziga hos xususiyatlar, o‘ziga hos ananalarga ega. Sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g‘oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi. Bizda demokratik jarayonlar halqimizning qonunni hurmat qilish, qonunga itoat etish kabi fazilatlariga mos ravishda rivojlanishi zarur. Ahloqiy-manaviy qadriyatlar siyosiy munosabatlarda ham ustunlik qilishi darkor.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib, siyosiy madaniyatga quyidagicha tarif berish mumkin: u siyosiy tizim subektlari bo‘lmish siyosiy partiyalar, birlashmalar, jamoalarning davlat hokimiyatini yurgizishdagi ishtiroki chog‘ida, shuningdek, siyosiy munosabatlarni tartibga solish borasida qo‘llaydigan, tayanadigan, rioya etadigan qadriyatlar, siyosiy g‘oyalar, e‘tiqod va ramzlar tizimidir. Bundan tashqari, siyosiy madaniyat muayyan millat yoki ijtimoiy jamoaning siyosat olami, siyosiy jarayonlarni amalga oshirishning qonun-qoidalari to‘g‘risidagi tasavvurlari majmui hamdir.

O‘zbekistonda shakllangan siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy hususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- alohida olingan shaxs manfaatlarining davlat va jamiyat manfaatlariga hamohangligi;
- ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va jamiyatning hal qiluvchi ahamiyatga molik roli e‘tirof etilishi;
- hokimiyatga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ananasining mavjudligi, rahbarlarning ma‘naviy qiyofasiga yuksak talab qo‘yish;
- parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi rolga e‘tiborli munosabatning mavjudligi;
- deyarli barcha siyosiy partiyalar vakillariga hos bo‘lgan hislat – o‘z g‘oya va tamoyillarining to‘g‘riligiga qat’iy ishonch.



Shaxs – jamiyat – davlat tizimida manfaatlarni uyg‘unlashtirish nafaqat siyosiy jarayonlarni uyg‘unlashtirish ratsional boshqarish ehtiyojidan, shu bilan birga, sharqona axloq-odob va demokratiya talablaridan ham kelib chiqadi. Demokratik taraqqiyotning manfaatlar rang-barangligi kengaygan sharoitida ularni mutanosiblashtirish, uyg‘unlashtirish siyosiy faoliyatning bosh vazifasiga aylanadi. Alohida olingan har bir shaxs va guruhning manfaatlarni rad qilmagan holda, ularni sintezlash va shu tariqa uyg‘unlikka erishish ratsional usulini topmay, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat qurib bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyatida demokratik tizimning mavjudligi va uning mustahkamlanib borishi fuqarolarda siyosiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy shartidir. Bunday siyosiy tizim shaxs siyosiy-huquqiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag‘batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo‘lsa, inson siyosiy hayotda shunchalik faol ishtirok etadi. Bu aksiomadir.

Shaxs – jamiyat – davlat tizimida har bir bo‘g‘in manfaatlari bir darajada zarur bo‘lgan voqelikdek tuyuladi, aslida esa, ular, qanchalik muhim o‘rin tutmasin, bo‘g‘inning o‘z mohiyatidan kelib chiqadi va uning substansional xususiyatini belgilab beradi. Shuning uchun manfaatlar qanchalik voqelik bo‘lmasin, ular bo‘g‘in mohiyatiga substansional tarzda bog‘liqdir. Individ, guruh yoki xalq hokimiyatchiligi bilan bog‘liq sub’ektlarning manfaatlari aynan bir xil bo‘la olmaydi. Ular o‘rtasidagi farq nafaqat bu tushunchalarning o‘zida, balki ularning namoyon bo‘lishida, ta’sirida, ko‘lami va darajasida ham ko‘rinadi. Bu farqlarni kamaytirishning siyosiy, huquqiy, psixologik, iqtisodiy, ma’naviy mexanizmlarini tahlil etish manfaatlarga oid ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-siyosiy va falsafiy-huquqiy qarashlarni kengaytirish, mavjud muammolarni turli ilmiy vositalar, yondashishlar nuqtai nazaridan hal etish imkonini beradi.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarni, ularda bayon etilgan manfaatlar haqidagi fikrlarni o‘rganish ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatida va demokratik huquqiy davlat qurishda manfaatlar fundamental voqelik sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishiga, boshqaruv ishlarining yo‘nalishiga va hokimiyat tevaragidagi kurashlar mohiyatiga ta’sir etib, jamiyatning siyosiy madaniyatini ifoda qiladi. Biroq manfaatlarni ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida tadqiq etish, uning milliy demokratik taraqqiyot sharoitida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib berish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.



Siyosiy adabiyotlarda ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va jamiyatning rolini tadqiq etish doim bosh mavzu bo‘lib kelgan, chunki hokimiyat siyosatning yuragidir. Hokimiyat odamlar orasida buyruq berish va bo‘ysunish, amr etish va tobelik kabi bir-biriga ta’sir ko‘rsatishning alohida shakli sifatida inson faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Inson faoliyati esa doim davlat va jamiyatni boshqarish ishlariga borib taqaladi. Shu ma’noda, inson faoliyati doimo u yoki bu darajada siyosat bilan bog‘liqdir.

Siyosiy madaniyat bir tomondan fuqarolarning ikkinchi tomondan davlat idoralari va jamiyat tashkilotlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning qonunga bo‘ysunishidan iboratdir.

Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga balki hokimiyaning barcha tarmoqlari nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlari faoliyatining samaradorligi ortishiga ham jiddiy e’tibor qaratiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayoni erkinlashtirish yo‘lidan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin shaxsni tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson huquqlarini ta’minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki, demokratiya faqat xalq hokimiyati bo‘lib qolmay, u ayni paytda, har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o‘z mamlakati kelajagi, o‘z taqdiri olidagi ma’suliyati hamdir.

Demokratiya va siyosiy hayotni erkinlashtirish zaruriyatini ahloqratiyadan(oxlos-to‘da, olomon), ya’ni, turli guruhlarining siyosiy o‘zboshimchaligidan, hokimiyat idoralariga noo‘rin talablar qo‘yishidan, ta’ziq o‘tkazishidan farq qilishi lozim.

Bu o‘z navbatida demokratiya, siyosiy hayotni erkinlashtirish orqali fuqarolardan o‘z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirishni, yuksak siyosiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi.

Jamiyatimizdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma’nodagi ko‘ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish milliy g‘oyaning siyosiy sohadagi o‘ziga xos tamoyillarini ifodalaydi. Bu nafaqat inson faoliyatiga, shu bilan birga, shaxs-jamiyat-davlat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarga, ular tufayli demokratik jamiyatda paydo bo‘ladigan muammolar echimga taalluqlidir. Siyosiy



faoliyatning, siyosiy madaniyatning mohiyati ham shu tizimga, unda kechadigan ijtimoiy-siyosiy jaryonlarga borib taqaladi. Bu jarayonlarning kim (shaxs, jamiyat, davlat) tomonidan, qanday usullar (avtoritar, demokratik va boshqa) bilan boshqarilishiga qarab, jamiyatning strategik maqsadini, taraqqiyot modelini aniqlash mumkin.

XULOSA

O‘zbekistonda ijtimoiy muammolarni umuxalq manfaatlari nuqtai nazardan hal etuvchi kuch sifatida davlat va jamiyat e’tirof qilinar ekan, demak mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti mana shu sub’ektlarning barqaror institutlarga aylanishiga, mustaqillikni mustaxkamlashda va demokratik tarqiyotni ta’minlanishida ularning faoliyati muhim ahamiyatga ega deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston tarqiyot strategiyasi. - T.:“O‘zbekiston”.2022.y - 235.b.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 5 iyuldagi yangi tahrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi Qonuni Toshkent sh., 2021 yil 5 iyul, O‘RQ- 699-son.
4. Ф.А.Кушаков. Перспективы развития современной философии техники. Academic research in educational sciences, 2022. 50-54. с.